

O'ZBEK GRAFIKASIDA ZAMONDOSHLAR MAVZUSINI YORITILISHI

Quvondiqova O'g'iloy Nazar qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dastgoh va kitob grafikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14994747>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek grafikasida zamondoshlar mavzusini yoritilishi haqida ochib berishga harakat qilindi. Shuningek, zamondoshlar obrazlari mavzusida ijod qilgan o'zbek grafik rassomlari ijodi, ularning estetik yondashuvi va ishlash usuli tahlil etildi.

Kalit so'zlar: zamondoshlar mavzusi, klassik va zamonaviy uslublar, an'anaviy uslublar.

ОПИСАНИЕ ТЕМЫ СОВРЕМЕННОКОВ В УЗБЕКСКОЙ ГРАФИКЕ

Аннотация. В статье была сделана попытка раскрыть тему современников в узбекской графике. Также были проанализированы работы узбекских художников-графиков на тему образов современников, их эстетический подход и метод работы.

Ключевые слова: тема современности, классический и современный стили, традиционные стили.

DESCRIPTION OF THE TOPIC OF CONTEMPORARIES IN UZBEK GRAPHICS

Abstract. The article tried to reveal about the coverage of the topic of contemporaries in Uzbek graphics. As such, the work of Uzbek graphic artists, their aesthetic approach and method of work, created on the topic of images of contemporaries, was analyzed.

Keywords: theme of contemporaries, classic and modern styles, traditional styles.

O'zbek datgohli grafikasida zamondoshlar mavzusining yoritilishi o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar, shuningdek, kundalik hayotning psixologik va hissiy tasvirlari datgohli grafikada o'z aksini topadi. Bunday grafikada rassomlar insonlarning ruhiy holati, orzulari, umidlari, shuningdek, jamiyatdagi beqarorlik, ijtimoiy adolatsizliklar va ijtimoiy-psixologik masalalarni ko'rsatish orqali zamonning asosiy hodisalari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Grafikada zamondoshlar mavzusi, rassomlar tomonidan oddiy hayotdan tortib, jamiyatdagi murakkab ijtimoiy muammolargacha bo'lgan keng qamrovli mavzularni yoritish orqali ifodalanadi. Zamonaviy ijtimoiy hayotda yuz berayotgan jarayonlar, insonlarning kundalik turmush tarzlari, urf-odatlar, shaxsiy va ijtimoiy muammolari, hayotdagi o'zgarishlar grafik asarlarda aks etadi.

O'zbek grafikasida zamondoshlar mavzusiga estetik yondashuv bir nechta uslubda amalga oshiriladi. Rassomlar, asosan, realizm, ekspressionizm, abstrakt va boshqa uslublar yordamida zamonning ruhini aks ettirishga harakat qiladilar.

Bu uslublar orqali, har bir rassom o'z zamonasi bilan aloqalarini ifodalaydi. Shuningdek, bu orqali rassomlar shaxsiyatni va insoniy holatni tasvirlashda o'ziga xos yondashuvni amalga oshirganlar.

O'zbek grafikasida zamondoshlar mavzusining yoritilishi klassik va zamonaviy uslublarning uyg'unlashgan shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni, grafika rassomlari o'z asarlarida an'anaviy uslublarni, masalan, xalq san'ati elementlarini, o'zbek xalqining rang-barang merosini zamonaviy uslublar bilan uyg'unlashtiradilar.

Bu o'z navbatida, an'ana va yangilikni birlashtirgan, milliy va global miqyosda taniladigan asarlar yaratadi. Bu mavzu asarlar orqali jamiyatdagi o'zgarishlar, yoshlarning qadriyatlari, ijtimoiy muammolar va innovatsiyalar tasvirlanadi.

O'zbek grafik rassomlari, o'zining estetik yondashuvi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali zamondoshlar mavzusini badiiy va mazmunli tarzda yoritishga harakat qilmoqdalar. O'zbek rassomlari, asosan, xalq qahramonlari, shaxsiyatlarni va ularning ruhini tasvirlashga intilganlar.

Dastgohli va kitob grafikasi yo'nalishida ijod qilgan katta va o'rta avlod vakillarining ayrim kompozitsiya namunalarini tahlil qilib ko'ramiz. Barchamizga ma'lumki, O'zbekistonda ko'plab grafika va kitob bezagi rassomlari ijod qilishgan.

Ular orasida V.E.Kaydalov ijodi alohida o'rin tutadi. V.Kaydalov 1930 yilda yosh rassomlar jamiyati (AXR) a'zolari N.Odintsov, K.Sobolovskiy bilan ilk bor O'rta Osiyoda ijodiy safarda bo'ldi. Bu ijodiy safar rassomda chuqur taassurot qoldirdi. Bu o'lkaning go'zal tabiati, hayoti odamlari uni rom etdi. 1932 yilda V.Kaydalov O'zbekistonga keldi va gazeta, kitob, plakat rassomi sifatida ishlay boshladi. Gazetada ishlagan faoliyatida poligrafiya texnikasini yaxshi egallab oldi.¹ Respublikada bezakli kitoblarni chop etish keng yo'lga qo'yila boshlandi. U o'z navbatida rassomga o'zining ijodiy nusxalarini ko'paytirish imkonini berdi. Bundan tashqari uning ko'plab dastgohli grafika yo'nalishida ishlagan asarlarini ham bilamiz. Masalan, 1940 yilda ishlangan "Buyuk qurulish", "Kattaqo'rg'on suv ombori qurilishi" turkumidagi avtolitografiya kabi asarlari ham mohirlik bilan tasvirlangan.

¹ I.Yuldashev, B.Qurbonova. Kitob grafikasida kompozitsiya hamda adabiyot asarlarini chuqurroq o'rganishda illyustratsiyaning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Volume 2 | Issue 12 2022. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/144._I.Yuldashev_1024-1031.pdf



V.Kaydalov "Buyuk qurulish"



V.Kaydalov "Kattaqo'rg'on Suv ombori qurilishi" turkumidagi

O'sha davr muhitini aks ettirgan. Har bir detalga sinchkovlik bilan ahamiyat berib ishlangan. Bu o'z navbarida tomoshabinga o'sha davr muhiti bilan tanishihga yordam beradi.

Uning asarlarida kompozitsiya va shakllar aniq va puxta ishlangan. Rassomning grafik asarlarini yaratishda geometrik va organik shakllarning uyg'unligi seziladi. Har bir element o'zining badiiy joylashuviga ega bo'lib, asar umumiy tuzilmani tashkil etadi. Bu shakllar orqali u ijtimoiy muammolarni, xalq hayotini va inson ruhiyatini jonli tarzda tasvirlaydi.

Kompozitsiyaning yengil va murakkab tuzilishi ko'pincha uning asarlariga dinamik va hissiyotli ko'rinish berishga yordam beradi.

O'zbek grafika san'ati qudratli vatanimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga hozirjavob bo'lishga harakat qilmoqda. Ana shu intilishni amalga oshirishda sidqidildan ter to'kib ijod qilganlardan biri O'zbekiston xalq rassomi Iskandar Ikromovning ijodi yurtimiz tasviriy san'atida muhim o'rini egallagan.

Iskandar Ikromovning asarlarida maishiy va ijtimoiy mavzular alohida o'rin tutadi. U o'z asarlarida xalq hayoti, mehnat, oila va jamiyatdagi o'zgarishlarni tasvirlashga katta e'tibor beradi.

Asarlarda oddiy odamlarning, ishchilarning va dehqonlarning hayotini aks ettiradi.

Ayniqsa, qishloq va shahar hayotidagi turmush tarzini, an'analar va urf-odatlarini tasvirlashda muvaffaqiyatli ishlagan. Uning asarlarida hayotning oddiy ko'rinishlari orqali ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega mavzularni ko'rsatadi.

I. Ikromov o'z asarlarida insonlarning ichki dunyosini, ularning his-tuyg'ularini va psixologik holatini aniq tasvirlaydi. U odamlarga yuz ifodalari, tana tili va pozalar orqali chuqur psixologik tahlil beradi. Ularning ko'rsatilgan harakatlari va holatlari orqali, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va inson ruhiyatining turli holatlari aks etadi. I. Ikromovning bu uslubi uning asarlarini yanada jonli va hissiyotlarga boy qiladi.

Milliy ramzlar, kiyimlar va boshqa elementlar orqali, u xalqning tarixiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Detallar orqali u insonlarning hayotini va muhitini yanada chuqurroq tasvirlashga harakat qiladi.

Yana bir o'zbek grafika san'atining yorqin namoyonalaridan bo'lmish, o'z zamondoshlari obrazlarini tasvirlashda yetakchi o'rinda bo'lgan rassom Qutlug' Basharov. Uning qator manzur va maqbul dastgohli rasmlari, kitob bezaklari o'zbek tasviriy san'atida faxrli o'rinni egallab kelmoqda. Qutlug' Basharov asarlarida obrazlarning kuchli va ta'sirchan badiiy sayqal topganligi, atoqli grafika ustalari kashfiyotidan ijodiy foydalanishga moyillik borligini ko'ramiz. Ikki muhim jarayon-milliy madaniyat an'analari, asoslari va hozirgi zamon suratkashligi tajribalarini o'zlashtirish shu kungi o'zbek grafikasini o'ziga xos uslubiy jarayonini tashkil etadi. Ko'zlangan yuksak marralarga intilib, sidqidildan jasorat ko'rsatayotgan azamat paxtakorlarning mehnati Qutlug' Basharovning "Paxtakorlar" va "Paxta" turkumidagi linogravyuralarida o'z aksini topdi.

Bu turkumdagi "Terimchilar" sahifasida uch dugonaning shodligi hayotiy va jozibali tasvirlangan. Hajman uncha katta bo'lmagan bu asarda uch xil xarakterdagi ayolni, ularning kayfiyatini jonli talqin etilganligini ko'ramiz.

San'atkorning "Onalik", "Hosil bayrami" linogravyuralari har jihatdan yuksak mahorat bilan ishlangan. "Onalik" asarida dala qo'ynida ter to'kib kelgan ona erkatoyiga mehr-la ko'krak berib termulayotgan, shirin orzular bilan yashayotgan insonni tasvirlaydi. Onalik baxtining jonli, hayotiy talqinini topgan.² Basharov ko'pincha oddiy kishilarning tasvirlari orqali ular bilan bog'liq kuchli ma'naviy va estetik ma'nolarni ochib beradi.



Q. Basharov "Onalik"



Q. Basharov "Oila"

² I.Yuldashev, B.Qurbonova. Kitob grafikasida kompozitsiya hamda adabiyot asarlarini chuqurroq o'rganishda illyustratsiyaning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Volume 2 | Issue 12 2022. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/144._I.Yuldashev_1024-1031.pdf

Qutlug' Basharov o'z asarlarida odamlarning ichki dunyosini, ularning his-tuyg'ularini juda kuchli tarzda aks ettiradi. Uning grafik asarlarida odamlarning yuz ifodalari, pozalar va harakatlar orqali chuqur psixologik tahlil qilish mumkin. U har bir obrazni, nafaqat tashqi ko'rinishi, balki uning ruhiy holati bilan ham tasvirlaydi. Bu uning asarlarini o'ziga xos va yuksak badiiy an'ana asarlariga aylantiradi.

Portret nafaqat insonning tashqi ko'rinishini, balki uning ichki dunyosini, ruhini, xarakterini aks ettiradi. O'zbek grafik rassomlari portret yordamida jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarini, tarixiy shaxslarni, yangi avlodni, madaniy qadriyatlarni va zamonaviy dunyoning murakkabligini yoritadilar. Bu turdagi portretlar estetik jihatdan yuqori bo'lib, san'atshunoslarga insonni va jamiyatni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Kitob grafikasida kompozitsiya hamda adabiyot asarlarini chuqurroq o'rganishda illyustratsiyaning ahamiyati I.Yuldashev, B.Qurbonova Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7
2. O'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda illyustratorlar hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishning ahamiyati. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov Academic Research in Educational Sciences.
3. Zarifova, D. (2023). TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING. Modern Science and Research, 2(10), 391-393.
4. Difuza Omon qizi Zarifova Sharq grafika san'atida maishiy janrning o'rganilishi. Innovative Development in Educational Activities 2023/5/15.